

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

Namangan muhandislik-qurilish instituti

Transport fakulteti

Yer usti transport tizimlari kafedrasi

*Namangan shaxridagi "Navbahor Aziya" MCHJ da 110 ta DAMAS avtomobillariga
avtotransport korxonasini tashkil etish.*

TUSHUNTIRISH YOZUVI

40-EUTTUE-14 guruh talabasi Muxammadiev Maxmud

imzo

Rahbar: X.Boqiev

imzo

Maslahatchi:

imzo

Namangan-2018 yil

Diplom loyiha ishi 33 varaq tushintirish yozuvi va 6 varaq chizmadan iborat bo'lib, umumiy, hisob-texnologik, tashkiliy, iqtisodiy, mehnat muhofasi qismlaridan, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va internet materiallaridan iborat.

Diplom loyiha ishini chizma qismi avtoservis korxonasini bosh rejasi, ishlab chiqarish binosi rejasi, tormoz tizimiga XK va T hamda yurish qismiga xizmat ko'rsatish ustaxonalari rejasi, avtomobillarni yurish qismiga XK texnologik xaritasi, konstruktiv ishlanma chizmasi va texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar jadvalini o'z ichiga oladi.

Diplom loyiha ishini umumiy qismida avtotransport vositalari texnik servisi ishlarining mohiyati, O'zbekiston avtoservisini rivojlanishi va muammolari, diplom loyiha ishi mavzusini asoslash berilgan. Hisob-texnologik qismida yillik ishlab chiqarish dasturi, ish hajmi, ishlab chiqarish ishchilar soni, ASK maydonini hisobi hamda texnologik jihozlar hisobi va ro'yxati berilgan. Tashkiliy qismida avtoservis korxonalarida texnologik jarayonlarini tashkil etish, tormoz tizimiga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash texnologiyasi, avtomobillarni yurish qismini kompyuter yordamida tekshirish, avtomobillarni yurish qismiga xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlari bo'yicha texnologik xarita tuzish, avtoservis korxonalarini rejalashtirish berilgan. Iqtisodiy qismida ASK ni texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari hisoblangan. Mehnat muhofazasi qismida ishchilarni xavfsiz ishlashini ta'minlash ko'zda tutilgan.

Mundarija

Kirish.....	
1.Umumiy qism.....	
1.1. Avtomobil servis xizmati tasnifi	
1.2. Diplom ishi mavzusini asoslanishi.....	
2. Hisob-texnologik qism.....	
2.1. Avtotransport korxonasini texnologik hisobi	
2.2. Texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlarini yillik ishlab chiqarish dasturini hisoblash.....	
2.3.TXK va JT mehnat hajmini ishlarning turlari va bajarilish joyi bo'yicha taqsimlash.....	
2.4. Ishlab chiqarish ishchilar sonini hisobi	
2.5. KXK, TXK, JT va diagnostika mintakalari uchun postlar va tizimlar sonini hisoblash.....	
3.Tashkiliy qism.....	
3.1. TXK va JT texnologik jarayonini tashkil etish uslubini tanlash va asoslash.....	
3.2. Texnologik jihozlarni tanlash.....	
3.3. Ishlab chikarish maydonlarini hisobi.....	
3.4. Omborxona va avtomobillarni turish joylarini maydonini hisobi...	
3.5. ATK ni bosh rejasini hisobi.....	
4. Iqtisodiy qism.....	
5. Mehnat muxofazasi	
5.1. Avtotransport korxonasida mehnatni muhofaza qilish.....	
Xulosa.....	
Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati.....	
Internetdan olingan ma'lumotlar	

(Yangi Bet)

Diplom ishi loyihasi ____ varaq tushintirish yozuvi va ____ varaq chizmadan iborat bo'lib, umumiy qism, hisob texnologik qism, tashkiliy qism, iqtisodiy qism, mehnat muhofasi qismlaridan hamda xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va ilovalardan iborat.

Diplom loyixasini chizma qismida korxonani bosh rejasi, ishlab chiqarish binosi chizmasi, texnologik jarayon ketma-ketiligi, ustaxonasini rejasi, texnologik xarita va texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar jadvalini o'z ichiga oladi.

Diplom loyihasini umumiy qismida; Avtomobil servis xizmati tasnifi, diplom ishi mavzusini asoslash berilgan. Xisob-texnologik qismida, dastlabki ma'lumotlar, avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha ishlab chikarish dasturini hisoblash, yulovchi tashish korxonasini texnik xizmat ko'rsatish turlari va joriy ta'mir bo'yicha yillik va kunlik ish xajmini hisobi, TXK va JT mehnat xajmini ishlarning turi va bajarilish joyi bo'yicha taqsimlash, yillik ish hajmini hisobi, ishlab chiqarish ishchilar soni hisobi keltirilgan. Tashkiliy qismida, ATK da texnologik jarayonlarni tashkil etish, texnologik jixozlar tanlash, ishlab chikarish maydonlarini xisobi, omborxona va avtomobillarni turish joylarini maydonini xisobi, ma'muriy va maishiy binolar maydonini xisobi, bosh reja tarixi va ishlab chikarish binosi xisobi bo'yicha texnologik tuzilgan. Iqtisodiy qismida ishlab chikarish binosini texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari hisoblangan. Mehnat muhofazasi qismida ishchilarni xavfsiz ishlashini ta'minlash ko'zda tutilgan .

Kirish

O'zbekistonda avtomobil sanoatini rivojlantirish maksadida birinchi prezidentimiz Islom Abdug'anievich Karimov 1992 yilning iyun oyida Janubiy Koreya Respublikasiga qilgan safarida «DEU Pablik Motors» kompaniyasi bilan tanishuvdan so'ng asos solindi. Prezidentimiz tashabbuslari bilan 1992 yilning xukumatimiz va «DEU» korporatsiyasi urtasida uzaro xamkorlik tug'risida bitim imzolangan, 1993 yildan boshlab Andijon viloyatining Asaka shahrida Tiko, Damas va Neksiya yengil avtomobillari ishlab chikaruvchi «UzDEUavto» kushma korxonasi kurilishi boshlandi va 1996 yilning 19 iyuli kuni zavod konveerida birinchi avtomobil yigildi va O'zbekiston dunyodagi avtomobilsozlik sanoatiga ega davlatlar katoriga kushildi. Xozirgi kunda Asaka shahridagi «JM-Uzbekistan» avtomobil ishlab chiqarish zavodida yiliga ikki yuzmingdan ortiq yengil avtomobillar ishlab chiqarilmoqda.

Xukumatimiz tomonidan olib borilayotgan maxalliylashtirish dasturi asosida mamlakatimizda ishlab-chiqarilayotgan avtomobillarning butlovchi qismlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar soni ortmoqda.

Respublikamizni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi qabul qilinishi natijasida barcha soxalar rivojlanmoqda shu qatorda avtomobilsozlik sohasi, ularga servis xizmat ko'rsatish ham rivojlanmoqda.

O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasining to'rtinchi yo'nalishining uchinchi bandida aholining hayot sharoitlari yaxshilanishini ta'minlovchi yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish. Aholiga transport xizmati ko'rsatishni tubdan yaxshilash, yo'lovchi tashish xavfsizligini oshirish va atrof muhitga zararli moddalar chiqishini kamaytirish, har tomonlama qulay yangi avtobuslarni sotib olish, avtovokzal va avtostantsiyalarni qurish hamda rekonstruktsiya qilish belgilab qo'yilgan (2)

So'nggi yillarda respublika iqtisodiyoti va aholisiga avtotransport xizmati ko'rsatishni yaxshilash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilganligi qayd etilsin. Yo'lovchi tashish yo'nalishlari tarmog'i 2006 yilga nisbatan 1,4 baravarga ortdi, respublikada 117 ta yo'lovchi avtovokzali va avtostantsiyasi faoliyat ko'rsatmoqda, tashuvlar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

2018-2021 yillarda 437 ta yangi yo'lovchi yo'nalishlarini tashkil etish hamda 84 ta avtovokzal va avtostantsiyani qurish va rekonstruktsiya qilishning, iqtisodiyot sohalari va aholining respublika chekka mintaqalarida tashishlarga bo'lgan ehtiyojlarini inobatga olgan holda yangilangan maqsadli ko'rsatkichlari, shuningdek, yuklarni xalqaro avtomobilda tashishlarni amalga oshiruvchi milliy tashuvchilarning og'ir yuk tashuvchi 3824 ta avtotransport vositalari parkini yangilashning prognoz ko'rsatkichlari tasdiqlanmoqda; (3)

Aholining hayot sharoitlari yaxshilanishini ta'minlovchi yo'l-transport, transport xizmati ko'rsatishni tubdan yaxshilash maqsadida O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoev "Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi "Uzbekistan Peugeot Citroen Automotive" korxonasini tashkil etish to'g'risida"gi qarori imzoladi.

Mamlakatimiz avtomobilsozlik sanoatida ikkinchi davr boshlandi Zavod "Peugeot boxer" va "Peugeot expert" ning ikkita modeli ishlab chiqariladi. Birinchi modelning ishlab chiqarish hajmi yiliga 3 mingta, ikkinchi - 13 mingtani tashkil etadi. Xususan, "Peugeot boxer" asosida 16-18 o'rinli mikroavtobus, tez tibbiy yordam va muzlatgichlar, shuningdek, "Peugeot Expert" da 9-12 o'ringa mo'ljallangan minivan, van, pikap yuk mashinalari va boshqa modifikatsiyalari ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish rejalashtirilgan. Yangi mashina iqtisodiy bo'ladi. Yoqilg'i sarfi o'rtacha 100 kilometr ga 7-8 litrni tashkil etadi. Shu bilan birga, mahsulotning taxminan 50% Rossiyaga, MDHning boshqa mamlakatlariga, shuningdek, Eron va Fransiya ga eksport qilinishini rejalashtirmoqda. Ayni kunlarda "Jizzax" erkin iqtisodiy zonasida "O'zavtosanoat" aksiyadorlik kompaniyasi "Pejo Sitroyen" guruhi bilan hamkorlikda barpo etayotgan avtomobil zavodining qurilishi qizg'in pallada. (4)

Bundan tashqari Rossiyaning "KamAZ" OAJ hamda "O'zavtosanoat" kompaniyasi O'zbekistonda yuk tashishga mo'ljallangan avtotransport vositalarini ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan hamkorlik to'g'risidagi bitimni imzolangan edi.

"KamAZ" markasidagi yuk tashuvchi transport vositalarini ishlab chiqarish UzAuto Trailer zavodi quvvatida tashkillashtirildi. Bundan tashqari, istiqbolda — respublika hududida avtomobillarni yig'ish bo'yicha qo'shma korxona yaratildi. Hozirgi kunda Samarqand viloyatining Jomboy tumanida joylashgan UzAutoTrailer mas'uliyati cheklangan jamiyatda yuk avtomobilining noyob modeli ishlab chiqarilmoqda.

Avtomobilsozlikni taraqqiyoti yuksalib borishi, avtomobillarni texnik soz holatini ta'minlash, TXKS lar ishlab-chikarish texnik bazalarini yanada takomillashtirish va yuksaltirishni talab etmoqda, bu

esa o'z navbatida yangi qurilish, mavjud ATXKS korxonalarini kengaytirish, qayta ta'mirlash, rekonstruktsiya qilish va texnik qayta jihozlash ishlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Diplom loyixasini bajarishdan maqsad yangi turdagi avtotransport zamon talab darajasida rekonstruktsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy qilish qayta korxonalarini qurish, mavjudlari faoliyatini tahlil qilib, undagi kamchiliklarni bartaraf qilish, ya'ni avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish va joriy ta'mirlash texnologik jarayonlarini rivojlantirish, ishchi postlarni zamonaviy texnologik jihozlar bilan jihozlash, ishlab chiqarishni ilmiy asosda tashkil qilish, TXK va T ishlarida mexanizatsiyalashtirishni va avtomatlashtirishni qo'llashdan iborat. Bu ishlarni amalga oshirish uchun avtomobillarga trotuar tipidagi yoki avtoservis korxonalarini tashkil etish va ularni takomillashtirishdan iborat.

Mavzu bo'yicha Namangan shaxridagi "Navbahor Aziya" MCHJ da 110 ta DAMAS avtomobillariga avtotransport korxonasini tashkil etish berilgan.

1. Умумий қисм

1.1. Автомобил сервис хизмати таснифи

Автомобил саноатининг ривожланиб бориши билан биргаликда, уларга хизмат кўрсатувчи корхоналар ва автомобилларга сервис хизматини ташкил етувчи марказларга бўлган эҳтиёж пайдо булди.

Булардан ташқари саноатни рақобатбардош муҳитини ташкил этиш борасида талай ишлар олиб борилди ва борилмоқда. Буларга мисол қилиб кичик ва ўрта бизнес вакиллари ҳам ўзлари автомобилларга хизмат кўрсатиш стационларини ташкил этиб сохада рақобат олиб бормоқдалар.

Республикаимизда янги автомобилларни ишлаб чиқарила бошланганидан кейин, вилоятимизда автомобилларга хизмат кўрсатиш, бозорни эгаллаш, мижоз учун кучли рақобатли муҳит шаклланди.

Улар стационларда мижозларга қуйидаги хизмат турларини тавсия этмоқдалар ва бажариб келмоқдалар:

1. Ўзининг автосалонларида барча турдаги автомобилларни юридик ва жисмоний шахсларга сотиш;

2. Автосервисларда автомобилларга техник хизмат кўрсатиш ва жорий таъмирлаш ишларини олиб бориш, уларга қуйидагилар киради:

- ёнилғи билан таъминлаш;
- автомобилларга турли техник хизмат кўрсатиш;
- носоз қисимларни таъмирлаш ва бўяш;
- ташҳис хизматини кўрсатиш;
- кафолатли хизмат кўрсатиш;
- автомобилларни сотув олди кўригини ўтказиш;
- ғилдиракларни мувозанатлаштириш;
- ғилдиракларни оғиш бурчакларини созлаш; ва таъмирлаш;
- двигателни таъмирлаш;
- двигател қисимларини таъмирлаш;
- шина ва аккумуляторларни ўрнатиш;
- ўриндиқларни ғилофлаш ишлари;
- автомобилларни олдинги ва кетинги кўприкларини таъмирлаш;
- карбюраторни таъмирлаш;
- мой насосларини таъмирлаш;
- токарлик ишлари;
- двигател блокини таъмирлаш;
- автомобилларга 1-2-ТХК ишлари;

Улар сон жиҳатидан шунчалик кўпки мижозлар ўртасида сифатли хизмат турларини танлаш имкониятига эгадирлар. Кичик стационлар йилига маълум миқдорда автомобилга хизмат кўрсатилади. Уларда ишчилар сони бир неча кишидан тортиб йирикларини бир неча ўнлаб иш ўринларида ишлайдилар, Битта ишчини ўртача иш хақи ҳозирги кунда 60-90 минг сўмни ташкил этади.

Маълумки, бозор иқтисодиёти шароитида рақобатга чидаш ва унда мувоффақиятли кураш олиб биришнинг асосий шартларидан бири бозорга қўйилган товарни (молни) ёки хизматни юқори сифатли бўлиши ва бунга бериладиган кафолатлардир. Автосервис хизмати ҳам бу қоидадан мустасно эмас, чунки мижозлар автомобилларига кўрсатилаётган хизматларнинг сифати, хизмат кўрсатувчиларни бозордаги, тадбиркорликдаги мувоффақиятлари гаровидир. Хизмат кўрсатиш соҳасида, жумладан автосервис хизматида ҳам, сифат икки

қисмдан, яъни автомобилда бажарилган ишларнинг сифати ва автомобиллар эгалари миждозларга қилинадиган муомила маданияти ва қулайликлардан иборатдир. Масалан, “ЎзДЭУАвтоКо” корпорацияси автосервисни қуйидагича таърифлайди:

“Сервис - бу сифат бўлиб, миждозлар талабларини тўла қондиришга йўналтирилган мумкин бўлган турли қулайликлардир” ёки “... энг муҳим вазифа миждоз автомобили энг яхши хусусиятларга эга бўлиш учун нималар қилмоқни аниқлашдир”. Бу сатрлар автомобилларда бажариладиган ишларнинг сифати қатори, уларнинг эгаларига кўрсатиладиган турли қулайликлар ва хизматларни муҳимлигини сервис нуқтаи назаридан таъкидлайди. Шу нарсани айтиш лозимки, яқин ўтмишимизда, бизнинг сервисимиз автомобилларга хизмат кўрсатишда маълум бир даражадаги сифатни таъминлаб келган бўлсада, уларнинг эгалари яъни миждозлар эҳтиёжлари бутунлай тан олинмаган, улар учун ҳатто оддий қулайликлар яратилмаган, керакли маълумотлар берилмаган. Ҳозирги пайтда бу соҳадаги аҳвол аста тузатилиб келиняпти, аммо у талаблар даражасидан ҳали йироқ, ўтмишнинг ярамас иллатлари барҳам топгани йўқ.

Ҳар бир соҳадаги каби сервис хизмат кўрсатишда ҳам сифат муаммосини ечишда тизимли ёндошиш (системный подход) талаб этилади, яъни бир неча ўзаро боғлиқ бўлган масалаларни кетма-кет ёки параллел равишда ҳал этиш зарурияти пайдо бўлади.

ТХК ва таъмирлаш ишлари сифатини шакллантирувчи омилларни санаб ўтамиз, улар қуйидагилар:


1. Ишлаб чиқаришни технологик тайёрлаш;
2. Моддий-техника таъминоти;
3. Кадрларни тайёрлаш ва доимо ўқитиш;
4. Метеорологик таъминот;
5. Хизмат сифатига бўлган талабларни меъёрлаштириш ва хизмат сифати даражасини барқарорлаштириш;
6. Хизматни баҳолашдан ўтказиш (сертификация);
7. Хизмат сифатини яхшилашни рағбатлантириш;
8. Хизмат сифатини бошқаришни ҳуқуқий таъминлаш;
9. Давлат томонидан давлат стандартларини жорий этилиши ва унга риоя этилишини ва техник шартлар, техник ўлчов воситалар ҳолатини назорат қилиш;
10. Хизмат сифатини муассасалар томонидан назорат қилиш;
11. Тизимни маълумот (ахборот) билан таъминлаш.

Шу кўрсатилган барча йўналишлар бўйича корхонада ишлаб чиқаришни стандартлари тузилади ва уларда ўз йўналишлари бўйича бажариладиган тадбирлар, бажарувчи бўлимлар ва ижрочилар аниқ кўрсатилади.

Ҳар қандай кўрсатиладиган хизматни сифатига миждозлар қўядиган талаблар давлат қонунларида акс эттирилади ва шу ҳолатдагина уларни бажарилишига ҳуқуқий асос яратилади. Ўзбекистонда ва Россияда бундай қонунлар ҳозирча иккита: «Истеъмолчиларни ҳуқуқини ҳимия қилиш тўғрисидаги қонуни 1996 йил май ойида қабул қилинган (Ўзбекистонда) ва «Товарлар ва хизматчиларни сертификация қилиш тўғрисидаги қонун». Бу қонунларда товар (мол) ишлаб чиқарувчи ёки савдо қилувчилар билан истеъмолчилар, миждозларни ўзаро ҳақ-ҳуқуқлари, вазифалари, жавобгарликлари умумий тарзда келтирилган. Иккинчи қонунда эса товарни ёки хизматни сертификация қилиш, яъни уларни барча талаблар, стандартлар асосида тайёрланганлиги ёки бажарилганлиги давлат томонидан тасдиқлаш ва шунга ҳужжат ёки белги олиш.

Бу қонунлардан ташқари давлатни яна бир қанча стандартлари (ГОСТлари) мавжуд бўлиб улар хавфсизликни таъминлаш ва табиатни асраш, экологик талабларидан келиб чиқади. Шунингдек, автомобиллар ишлаб чиқарувчи фирмаларнинг ўз маҳсулотларига техник хизмат кўрсатиш ва таъмирлашда қўлланиладиган турли қоидалар, низомлар, техник талаблар, шартлар, технологик интизом ва ҳакозолар ҳам мавжуддир.

Юқорида келтирилган давлат қонунлари, стандартлари, соҳа ва муассасаларнинг талаблари асосида сервис хизмати кўрсатувчи корхоналар хизмат сифатини таъминлаш ва уни талаб даражасида барқарор ушлаб туриш мақсадида айтиб ўтилган йўналишлар бўйича ўз стандартларини ишлаб чиқаради ва амалга оширадилар. Товарлар ва хизматлар сифатига қўйиладиган барча ҳуқуқий ва меъёрий ҳужжатлар тизими 1.1-расмда кўрсатилган.



1.1-расм. Автосервис хизматини ҳуқуқий ва меъёрий таъминловчи ҳужжатлар тизими.

Ўзбекистонда 2 бўғинда (Ўзавтосаноат корпорацияси) автомобилларга («ЎЗДЭУавтоКо» автомобилларига) техник хизмат кўрсатиш ва таъмирлаш тўғрисида низоми ва аҳоли автомобилларига хизмат кўрсатиш қоидалари ишлаб чиқилган. Низомда автомобилларни техник хизмати ва таъмири асослари ва меъёрлари ва шунингдек уларни автотеххизмат корхоналарида ташкил этиш бўйича тавсияномалар келтирилади. Низомни асоси қилиб автомобилларни техник ҳолатини таъминловчи маълум бир стратегия танлаб олинади.

1.2. Диплом иши мавзусини асосланиши

Наманган шаҳридаги “Навбахор Азия” МЧЖ гавжум кўчаларидан бири. Бу ердаги автомобиллар оқими бир суткада 11000 ва ундан кўпни ташкил қилади. Наманган шаҳридаги “Навбахор Азия” МЧЖ автотранспорт корхонасидаги автомобилларга хизмат кўрсатиш шаҳобчаларини таҳлил қилганимизда, автомобилларни шиналарини таъмирлаш ва вулканизация, автомобилларни мойини алмаштириш, электр жиҳозларига хизмат кўрстаиш устахоналари фаолият кўрсатади, автомобилларни автокорхонада хизмат кўрсатиш ва таъмирлаш учун бу ерда устахоналар етарли даражада мавжуд эмас. Наманган шаҳридаги “Навбахор Азия” МЧЖ ни ишини таҳлил қилганимизда, автомобилларга хизмат кўрсатиш ва

таъмирлаш устахонаси мавжуд бўлиб, бу устахоналар анча эскириб қолган технологик жихозлар билан жиҳозланган. Автокорхонадаги устахоналарни жиҳозланиши ва автомобил деталларини таъмирлаш технологиясини кўриб чиққанимизда, бу автокорхоналардаги хизмат кўрсатиш эски усулда экан, кўп ишлар қўлда бажарилади. Бундан ташқари бу автокорхонада кўпгина ишлар қўлда бажарилганлиги учун меҳнат унумдорлиги ва сифати паст. Меҳнат муҳофазаси ва санитария қоидаларига риоя қилинмайди, ишдаги касбий шикастланишлар миқдори нисбатан кўп. Ишчиларни ювиниши ва дам олиши учун шароитлар етарли эмас. Майда таъмирлашга кирган миջозлар учун кутиши учун шароит яратилмаган.

Юқоридагилардан келиб чиқиб диплом лойиҳаси мавзусини танлаб олишда биз Наманган шаҳридаги “Навбахор Азия” МЧЖда 110та Дамас автомобилларига автотранспорт корхонасини лойиҳалаш мақсад қилиб олдик ва қўйидагиларни ҳал этамиз.

- Наманган шаҳридан ўтаётган автомобиллар сонини аниқлаш;
- дастлабки маълумотлар;
- автомобилларга техник хизмат кўрсатиш ва таъмирлаш бўйича ишлаб чиқариш дастурини ҳисоблаш
- йўловчи ташиш корхонасини техник хизмат кўрсатиш турлари ва жорий таъмир бўйича йиллик ва кунлик иш ҳажминини ҳисоби;
- ТХК ва ЖТ меҳнат ҳажминини ишларнинг тури ва бажарилиш жойи бўйича тақсимлаш
- ишлаб чиқариш ишчилар сонини ҳисоблаш;
- технологик жиҳозларни танлаш;
- устахона майдонини ҳисоблаш;
- технологик харита тузиш;
- техник-иқтисодий кўрсаткичларни ҳисоблаш;
- автокорхонада меҳнатни ва атроф-муҳит муҳофазасини таҳлил қилиш ва чора тадбирлар ишлаб чиқиш;
- диплом лойиҳаси бўйича хулоса қилиш.

2. Hisob-texnologik qismi

2.1. Avtotransport korxonasini texnologik hisobi

2.1.1. Dastlabki ma'lumotlar

Avtotransport korxonasini texnologik hisobini bajarish uchun quyidagi dastlabki ma'lumotlar bo'lishi lozim:

1. Avtotransport korxonasi namangan shahridagi aholini tashishga va aholi avtomobillariga xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallangan.

2. Avtotransport korxonasidagi avtomobillar asosan II toifali ekspluatatsiya sharoitlarida ishlatiladi.

3. Avtotransport korxonasida 110 ta avtomobuslar mavjud bo'lib, ular ekspluatatsiya boshidan buyon turlicha yo'l bosib o'tishgan (2.1-jadval).

2.1-jadval. Avtotransport korxonasidagi avtomobillarni ekspluatatsiya boshidan buyon bosib o'tgan yo'li bo'yicha taqsimlanishi

Т-р	Автомобиллар русуми	Автомобилларни эксплуатация бошидан буён босиб ўтган йўли улуши								
		0,25...0,5	0,5...0,75	0,75...1,0	1,0...1,25	1,25...1,5	1,5...1,75	1,75...2,0	2,0 ва юқори	Жами
1	Дамас	50	20	20	20	-	-	-	-	110
	Жами	50	20	20	20	-	-	-	-	110

4. Harakatdagi tarkibni ish kunlari soni, $D_{yi}=365$ kun

5. Korxonadagi texnik xizmat ko'rsatishni yillik ish kunlari soni, $D_{TY}=305$ kun

6. Topshiriqdagi vaqt, $T_N=12$ soat

7. Avtomobillarni o'rtacha bosib o'tgan yo'li (2.2-jadval)

2.2-jadval. Avtotransport korxonadagi avtomobillarni o'rtacha kunlik bosib o'tgan yo'li

T-r	Avtomobillar rusumi	O'rtacha bosib o'tgan yo'li
1	DAMAS	220

2.1.2. Avtmobillarga TXK davriyligini va ta'mirlar oralig'ida bosib o'tiladigan yo'l me'yorini to'g'rilash

Ishlab chiqarish dasturini hisoblash uchun oldindan avtomobilning 1-TXK, 2-TXK va MT gacha bosib o'tadigan yo'li miqdorini tanlash hamda ularni berilgan ekspluatatsiya sharoiti uchun to'g'rilash lozim. Keyingi hisoblash ishlarini soddalashtirish uchun bosib o'tadigan yo'l miqdorlari o'zaro hamda kunlik bosib o'tilgan yo'l miqdoriga karali bo'lishi lozim. 1-TXK, 2-TXK davriyligini va ta'mirlar oralig'ida bosib o'tiladigan yo'l miqdori me'yorini to'g'rilash quyidagi tartibda olib boriladi.

1. TXK davriyliklarini me'yoriy qiymatlarini hamda ta'mirlar oralig'ida bosib o'tiladigan yo'l me'yorini tanlash

1-TXK va 2-TXK davriyliklarini me'yoriy qiymatlari hamda ta'mirlar oralig'ida bosib o'tiladigan yo'lni me'yoriy qiymatlari «Nizom» asosida tanlab olinadi (2.3-jadval).

2.3-jadval. 1-TXK va 2-TXK davriyliklari hamda ta'mirlar oralig'ida bosib o'tgan yo'lni me'yoriy qiymatlari.

T-r	Avtomobillar rusumi	1-TXK davriyliklarini me'yoriy qiymati, km	2-TXK davriyliklarini me'yoriy qiymati, km	MT oralig'ida bosib o'tiladigan yo'lni me'yoriy qiymati, ming km
4	DAMAS	10000	20000	1000

2. Texnik xizmat ko'rsatish davriyliklarini berilgan sharoit uchun to'g'rilash

1-TXK bo'yicha $\ell_1 = L_1^H * K_1 * K_3 = 10000 * 0,8 * 0,9 = 7200$ km

2-TXK bo'yicha $\ell_2 = L_2^H * K_1 * K_3 = 20000 * 0,8 * 0,9 = 14400$ km

bu yerda K_1 - ekspluatatsiya sharoiti toifasini hisobga oluvchi koeffitsient;

K_3 —tabiiy-iqlim sharoitini hisobga oluvchi koeffitsient.

3. Ta'mirlar oralig'ida bosib o'tiladigan yo'lni o'rtacha qiymatini aniqlash

Hisoblashni soddalashtirish maqsadida ta'mirlar oralig'ida bosib o'tiladigan yo'lni o'rtacha qiymatini aniqlash

$$L_{YPT} = \frac{A_{C_1} \cdot L_{T_1} + A_{C_2} \cdot L_{T_2} + \dots + A_{TC} \cdot L_{TC}}{A_C} = \frac{90 \cdot 1000000 + 20 \cdot 800000}{110} = 963636 \text{ km}$$

bu yerda $A_{C_1} \dots A_{C_i}$ – mukammal ta'mirgacha yo'l bosib o'tgan avtomobillarni soni;

A_{ts} – mukammal ta'mirdan o'tgan avtomobillar soni;

$L_{T_1} \dots L_{T_i}$ – avtomobillarni MT gacha bosib o'tgan yo'li.

L_{ts} – mukammal ta'mirlangan avtomobillarni bosib o'tgan yo'li, km.

Avtotransport korxonasidagi DAMAS avtomobillari mukammal ta'mirdan o'tmaganligi sababli MT gacha bosib o'tgan yo'lni o'rtachasi bo'yicha hisoblamaymiz

$$L_{ts} = 0,8 L_T^M$$

bu yerda L_T^M – avtomobilning mukammal ta'mirgacha bosib o'tadigan yo'lni me'yoriy qiymati, km

4. Ta'mirlar oralig'ida bosib o'tiladigan yo'l me'yorini to'g'rilash

$$\ell_T = L_{o'rt} K_1 K_2 K_3 = 963636 \cdot 0,9 \cdot 1,0 \cdot 0,9 = 780\,545 \text{ km}$$

bu yerda K_2 – harakatdagi tarkibni modifikatsiyasini hisobga oluvchi koeffitsient.

2.1.4. TXX davriyligi va ta'mirlar oralig'ida bosib o'tiladigan yo'lni to'g'rilash

a) 1-TXX gacha bosib o'tilgan yo'l bilan o'rtacha kunlik bosib o'tilgan yo'l orasidagi karralilik

$$n_1 = \frac{\ell_1}{\ell_{yk}} = \frac{7200}{220} \approx 33$$

1-TXX uchun karrali to'g'rilangan davriylik

$$L_1 = \ell_{yk} n_1 = 220 \cdot 33 = 7260 \text{ km}$$

CHetanish xatoligi

$$a_1 = \frac{L_1 - \ell_1}{\ell_1} \cdot 100\% = \frac{7260 - 7200}{7200} \cdot 100\% = 0,83 \%$$

b) 2-TXX va 1-TXX davriyligi orasidagi karralilik

$$n_2 = \frac{\ell_2}{L_1} = \frac{14400}{7260} \approx 2$$

2-TXX uchun karali to'g'rilangan davriylik

$$L_2 = L_1 \cdot n_2 = 7260 \cdot 2 = 14520 \text{ km}$$

CHetanish xatoligi

$$a_2 = \frac{L_2 - \ell_2}{\ell_2} \cdot 100\% = \frac{14520 - 14400}{14400} \cdot 100\% = 0,83 \%$$

v) MT oralig'ida bosib o'tiladigan yo'l va 2-TXX davriyligi orasidagi karralilik

$$n_T = \frac{\ell_T}{L_2} = \frac{780545}{14520} \approx 54$$

Karrali to'g'rilangan MT oralig'ida bosib o'tiladigan yo'l

$$L_T = L_2 \cdot n_T = 14520 \cdot 54 = 784080 \text{ km}$$

CHetanish xatoligi

$$a_T = \frac{L_T - \ell_T}{\ell_T} \cdot 100\% = \frac{784080 - 780545}{780545} \cdot 100\% = 0,45 \%$$

2.2. Texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlarini yillik ishlab chiqarish dasturini hisoblash

Ishlab chiqarish dasturini hisoblashda quyidagi ikkita metoddan foydalanish mumkin:

- tsikl uchun analitik metod yillik dasturini hisoblash bilan;
- yillik analitik metod tenglamalari sistemasi ishtirokida.

Texnik xizmat ko'rsatish turlari (KXX, 1-TXX, 2-TXX va MXK) va MT bo'yicha ishlab chiqarish dasturi asosan tsikl metodi bilan quyidagicha hisoblanadi:

1. Mukammal ta'mir soni: $N_{m} = \frac{L_T}{L_{u}} = 1$, chunki bita tsiklni ta'mirlar oralig'ida bosib o'tgan yo'l

bilan teng deb qabul qilamiz, ya'ni $L_{u} = L_T$

$$2\text{-TXK soni: } N_{2u} = \frac{L_T}{L_2} - N_{Tu} = \frac{784080}{14520} - 1 = 53 \text{ ta}$$

$$1\text{-TXK soni: } N_{1u} = \frac{L_T}{L_1} - (N_{Tu} + N_{2u}) = \frac{784080}{7260} - (1 + 53) = 54 \text{ ta}$$

$$\text{KKK soni: } N_{Ku} = \frac{L_T}{L_{y.k}} = \frac{784080}{220} = 3564 \text{ ta}$$

2. Avtomobilning texnik tayyorgarlik va ishga chiqish ko'effitsientlarini aniqlash

a) tsikldagi ta'mir kunlari sonini aniqlaymiz

$$D_{Tu} = N_{Tu} \cdot D_{MT} + \frac{D_{TXK-JT} \cdot L_T \cdot K'_4}{1000} = 1 \cdot 18 + \frac{0,40 \cdot 784080 \cdot 1,1}{1000} = 361 \text{ kun}$$

bu yerda D_{mt} -mukammal ta'mirda turish kunlari;

D_{txk-jt} – avtomobillarni TXK va JT da turish davomiyligi;

K_4 - avtomobillarni ekspluatatsiya boshidan buyon bosib o'tigan yo'lga nisbatan TXK va JT da turish kunlarini to'g'rilash ko'effitsienti

$$K'_4 = \frac{A_{C_1} \cdot K'_4 + A_{C_2} \cdot K'_4 + \dots + A_{C_n} \cdot K'_4}{A_C} = (50 \cdot 0,7 + 20 \cdot 1,0 + 20 \cdot 1,3 + 20 \cdot 1,4) / 110 = 0,99$$

Hisoblanayotgan avtomobillarimiz mukammal ta'mir resursini o'tagani uchun $K'_4 = 1,0$ qabul qilamiz.

TSikldagi mukammal ta'mir kunlari soni

$$D_{Tu} = 361 \text{ kun}$$

b) tsikldagi avtomobilni ekspluatatsiya kunlari soni

$$D_{yu} = \frac{L_T}{l_{yK}} = \frac{784080}{220} = 3564 \text{ kun}$$

Texnik tayyorgarlik ko'effitsienti

$$\alpha_T = \frac{D_{yu}}{D_{yu} + D_{Tu}} = \frac{3564}{3564 + 361} = 0,90$$

Avtomobilni ishga chiqish ko'effitsienti

$$\alpha_q = \frac{D_{iit} \cdot \alpha_T}{D_K} = \frac{365 \cdot 0,90}{365} = 0,90$$

3. Avtotransport korxonasi uchun bir yillik TXK lar sonini aniqlash

a) avtomobillarni yillik bosib o'tgan yo'li

$$L_{iit} = D_{iit} \cdot \alpha_T \cdot l_{yK} = 365 \cdot 0,90 \cdot 220 = 72\,270 \text{ km}$$

b) tsikldan yo'lga o'tish ko'effitsienti

$$\eta_{iit} = \frac{D_{iit}}{D_{yu}} \cdot \alpha_T = \frac{365}{3564} \cdot 0,90 = 0,09$$

Avtotransport korxonasini TXK va MT bo'yicha yillik ishlab chiqarish dasturi

MT soni: $N_{iit} = N_{Tu} \cdot \eta_{iit} \cdot A_C = 1 \cdot 0,10 \cdot 110 = 10 \text{ ta}$

2-TXK soni $N_{2iit} = N_{2u} \cdot \eta_{iit} \cdot A_C = 53 \cdot 0,10 \cdot 110 = 583 \text{ ta}$

1-TXK soni: $N_{1iit} = N_{1u} \cdot \eta_{iit} \cdot A_C = 54 \cdot 0,10 \cdot 110 = 594 \text{ ta}$

KKK soni: $N_{Kiit} = N_{Ku} \cdot \eta_{iit} \cdot A_C = 3564 \cdot 0,10 \cdot 110 = 39204 \text{ ta}$

v) diagnostika ishlari sonini aniqlash

$$N_{d-1iit} = 1,1 \cdot N_{1iit} + N_{2iit} = 1,1 \cdot 583 + 594 = 1294 \text{ ta}$$

$$N_{d-2iit} = 1,2 \cdot N_{2iit} = 1,2 \cdot 583 = 670 \text{ ta}$$

2.2.1. Mexnat sarfi me'yori va to'g'rilash ko'effitsientlarini tanlash

Mehnat sarfi me'yori va to'g'rilash ko'effitsientlari avtomobil-larga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash «Nizom» ning 2.2, 2.8, 2.9, 2.10, 2.12 jadvallaridan olinadi va

2.4 jadvalga kiritiladi.

2.4-jadval. TXK va JT mehnat sarfi me'yorlari va to'g'rilash ko'effitsientlari

Avtomobillar rusumi	TXK turlari va JT	TXK va JT mehnat sarfi me'yorlari, o.-s.	Ko'effitsientlar					
			K ₁	K ₂	K ₃	K ₄	K ₅	K _m

DAMAS	KXX	0,35						0,35
	1-TXX	2,7						-
	2-TXX	5,8						-
	JT	1,04	1,2	1,0	1,1	1,0	1,15	-

2.2.2. TXX va JT mehnat sig'irlarini berilgan sharoit uchun to'g'rilash

a) TXX ni mehnat sig'irini to'g'rilangan me'yoriy miqdori

$$t_{KX} = t_{KX}^M \cdot K_2 \cdot K_5 \cdot K_M = 0,35 \cdot 1,0 \cdot 1,15 \cdot 0,35 = 0,14 \text{ o.s.}$$

b) 1-TXX mehnat sig'irini to'g'rilangan me'yoriy miqdori

$$t_1 = t_1^M \cdot K_2 \cdot K_5 = 2,7 \cdot 1,0 \cdot 1,15 = 3,11 \text{ o.s.}$$

v) 2-TXX mehnat sig'irini to'g'rilangan me'yoriy miqdori

$$t_2 = t_2^M \cdot K_2 \cdot K_5 = 5,8 \cdot 1,0 \cdot 1,15 = 6,67 \text{ o.s.}$$

g) JT mehnat sig'irini to'g'rilangan me'yoriy miqdori

$$t_{JT} = t_{JT}^M \cdot K_1 \cdot K_2 \cdot K_3 \cdot K_4 \cdot K_5 = 1,04 \cdot 1,2 \cdot 1,0 \cdot 1,1 \cdot 1,0 \cdot 1,15 = 1,57 \text{ o.s.}$$

bu yerda K_1 – ekspluatatsiya sharoitini hisobga oluvchi koeffitsient;

K_2 – TXX va JT mehnat sig'irini harakatlanuvchi tarkib modifikatsiyasini hisobga oluvchi koeffitsient;

$$K_4 = \frac{A_{C_1} \cdot K_{A_1} + A_{C_2} \cdot K_{A_2} + \dots + A_{C_n} \cdot K_{A_n}}{A_C} = (50 \cdot 0,7 + 20 \cdot 1,0 + 20 \cdot 1,4 + 20 \cdot 1,5) / 110 = 1,1$$

K_3 – JT mehnat sig'irini tabiiy iqlim sharoiti va tashqi muhit ta'siriga nisbatan to'g'rilash koeffitsienti;

K_4 – JT mehnat sig'irini avtomobillarning ekspluatatsiya boshidan buyon bosib o'tgan yo'lini hisobga oluvchi koeffitsient;

K_5 – TXX va JT mehnat sig'irini avtomobillar soniga nisbatan to'g'rilash koeffitsient;

K_M – mexanizatsiya darajasini hisobga oluvchi koeffitsient.

Avtotransport korxonasi yillik ish hajmi hisobi

a) KXX bo'yicha yillik ish hajmi

$$T_{KX} = N_{KX} \cdot t_{KX} = 39204 \cdot 0,17 = 6664 \text{ o.s.}$$

b) 1-TXX bo'yicha yillik ish hajmi

$$T_1 = N_1 \cdot t_1 = 594 \cdot 3,11 = 1847 \text{ o.s.}$$

v) 2-TXX bo'yicha yillik ish hajmi

$$T_2 = N_2 \cdot t_2 = 583 \cdot 6,67 = 3888 \text{ o.s.}$$

g) JT bo'yicha yillik ish hajmi

$$T_{JT} = \frac{L_{JT} \cdot A_C}{1000} \cdot t_{JT} = \frac{72270 \cdot 110}{1000} \cdot 1,75 = 13912 \text{ o.s.}$$

2.2.3. Yillik yordamchi ish hajmini hisoblash

Yordamchi ishlarning yillik xajmi ATK dagi TXX va JT bo'yicha yillik ish xajmining 20-30% ni tashkil etadi. Mayda ATK uchun katta qiymatlar va katta ATK uchun qiymatlar qabul qilinadi.

$$T_{yord.y} = (0,2 \dots 0,3) (T_{KX} + T_1 + T_2 + T_{JT}) = 0,25 (6664 + 1847 + 3888 + 13912) = 0,25 \cdot 26311 = 6578 \text{ o.s.}$$

ATKda yordamchi ishlar ikkiga bo'linadi:

-ATKni o'ziga xizmat ko'rsatish ishlari;

-xo'jalik ishlari.

a) ATK ni o'ziga xizmat ko'rsatish ishlarining yillik xajmi.

$$T_{uz.x.y} = T_{yord.y} \cdot d_{yzx} = 6578 \cdot 0,4 = 2631 \text{ o.s.}$$

bu yerda: $d_{x,u} = 0,4 \dots 0,5$ ATKdagi o'ziga xizmat ko'rsatish ishlarining ulushi (12).

b) Xo'jalik ishlarining yillik ish xajmi.

$$T_{xij} = T_{yord.y} \cdot d_x = 6578 \cdot 0,6 = 3946 \text{ o.s.}$$

bu yerda: $d_{xu} = 0,5 \dots 0,6$ - xo'jalik ishlarining ulushi.

Katta ATKlarda o'ziga xizmat qilish ishlarini bosh mexanika bo'limining ishchilari bajaradi. Yordamchi ishlarni ish turlari bo'yicha taqsimoti 2.5- jadvalda keltirilgan.

2.5- jadval. ATKda o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish ishlarini turlari bo'yicha taqsimoti

№	Ish turlari	Foiz	Odam- soat
1	Elektromexanik	25	658
2	Mexanik	10	263

3	Chilangarlik	16	421
4	Temirchilik	2	53
5	Payvandlash	4	105
6	Tunukasozlik	4	105
7	Misgarlik	1	26
8	Quvur o'tkazish	22	579
9	Qurilish-ta'mirlash	10	263
10	Duradgorlik	6	158
	Jami:	100	2631

2.6-jadval. ATK da xo'jalik ishlari taqsimoti

№	Ish turlari	Foiz	Odam-soat
1	Transport	14	552
2	Avtomobillarni ko'chirish	40	1578
3	Moddiy buyumlarni qabul qilish, saqlash, tarqatish	14	552
4	ATK xududi va xonalarni tozalash	32	1263
	Jami:	100	3946

2.3. TXK va JT mehnat hajmini ishlarning turi va bajarilish joyi bo'yicha taqsimlash.

KX va 1-TXK yillik ish hajmining taqsimoti jadval shaklida beriladi.

2.7-jadval. Kundalik xizmat ishlarining turiga qarab taqsimoti (% da)

Ish turlari	Damas	
	%	o.-s.
Tozalash	30	1999
Yuvish	55	3665
Artit	15	1000
Jami	100	6664

2.8-jadval. 1-TXK ishining turlari bo'iicha taqsimoti, foizda (%)

Ish turlari	Foizda	odam-soatda
Diagnostika	12	222
Qotirish	45	831
Sozlash	10	185
Moylash	20	369
Elektrotexnik	5	92
Ta'minot tizimi	3	55
Shina	5	92
Jami:	100	1847

2-TXK va JT ish xajmining taqsimlashda (2.9 va 2.10-jadval) postlarda va ustaxonalarda bajariladigai ishlar hajmi yig'indi shaklida ko'satiladi.

2.9-jadval. 2-TXK va MX ishining turlari va bajarilishi joyi bo'iicha taqsimoti

Ish turlari	Foiz	odam-soat
Diagnostika	10	389
Qotirish	37	1439
Sozlash	9	350
Moylash	9	350
Elektrotexnik	3	117
Akkumulyator	2	78
Ta'minot tizimi	2	78
Shina	1	39
Kuzov	18	700
Jami:	91	3538
Ustaxona ishlari	0	0

Elektrotexnik	3	117
Akkumulyator	2	78
Ta`minot tizimi	2	78
Shina	2	78
Jami:	9	350
Umumiy	100	3888

2.10-jadval. Joriy ta`mirlash ishining turlari va bajarilish bo'yicha taqsimoti. %

Ish turlari	Foiz	odam-soat
Postda bajariladigan ishlar		
Diagnostika	2	278
Sozlash	4	556
Ajratish - yig'ish	45	6260
Jami:	51	7095
Agregat	14	1948
Chilangan-mexanik	10	1391
Elektrotexnik	5	696
Akkumulyator	1	139
Ta`minot tizimi	2	278
Shina	2	278
Kamera yamash	1	139
Temirchilik	2	278
Misgarlik	2	278
Payvandlash	1	139
Tunukazozlik	1	139
Armatura-kuzov	4	556
Qoplamachilik	3	417
Taksometr va radio tuzatish	1	139
Jami:	49	6817
Hammasi	100	13912

Diagnostika ishlarining yillik mehnat ajmi 1-TXK, 2-TXK, MX va JT mehnat hajmlarining ulushi ko'rinishida aniqlanadi.

$$T_{y.id}=T_{yi} d_l, \text{ o-s}$$

bu yerda: T_{yi} -ish turlari bo'iicha yillik mehnat hajmi;

d_l -ish turlariga to'g'ri keluvchi diagnostika ishlarining ulushi.

d_l ning qiymatlari ish turlari bo'yicha taqsimlash jadvallaridan olinadi (2.8, 2.9 va 2.10 - jadvallar).

TXK va JT bo'yicha diagnostika ishlarining mehnat xajmi hisoblanadi va diagnostika turlari bo'yicha taqsimlanadi .

2.11-jadval. Diagnostika ishlari hajmini aniqlash

№	TXK va ish turlari	Postda bajariladigan ish hajmi, o-s		Diagnostikasiz ish hajmi
		Iillik ish hajmi, o-s	Diashostika ishlari hajmi	
1	1-TXK	1847	222	1847-222=1625
2	2-TXK	3538	389	3149
3	JT	6817	278	6539
	Jami:	12202	889	11313

2.12-jadval. Diagnostika ishlarini ish turlari bo'yicha taqsimlash

№	Ish turlari	Foiz	Odami-soat
1	1-D	50-60	488
2	2-D	40-50	400
3	Jami:	100	888

2.4. Ishlab-chiqarish ishchlari sonini hisoblash.

Postlardagi, ustaxonalardagi va bo'linmalardagi ishlarni bajarish uchun ishlab-chiqarish ishchilarining texnologik zarur miqdori (P_T) quyidagicha aniqlanadi:

$$P_m = \frac{T_{ii}}{\Phi_H}, \text{ odam}$$

bu yerda: Φ_n -bir yillik nominal vaqt fondi, soat.

Ishchilarning texnologik zarur miqdori TXK va JT bo'yicha kunlik ishlab chiqarish dasturini bajarishni ta'minlaydi. Φ_n ning qiymati normal mehnat sharoitiga ega bo'lgan ishlab chiqarish sharoiti uchun-2070 soat, zararli sharoitga ega bo'lgan ishlab chiqarish uchun 1830 soat qabul qilinadi.

Ishchilarning shtatli miqdori (P_{sh}) quyidagicha aniqlanadi:

$$P_{uu} = \frac{T_{ii}}{\Phi_{uu}}, \text{ odam}$$

bu yerda: Φ_{sh} -bir yillik haqiqiy vaqt fondi, soat.

Ishchilarning shtatli miqdori TXK va JT bo'yicha yillik ishlab chiqarish dasturini (yillik ish xajmini) bajarishni ta'minlaydi. Ishchilar sonini aniqlashda hisoblash ishlari jadval (9-ilova) ko'rinishida beriladi. Agar ishchilarni hisobiy soni kasr yoki birga yaqin bo'lsa, texnologik o'xshash ishlarni birlashtirilib yaxlitlanadi. TXK va JT mintaqalarini hisoblayotganda zarur shichilar soni quyidagicha aniqlanadi:

$$P_s = \frac{T_{ii}}{\Phi_{iyp}}, \text{ odam}$$

bu yerda: Φ_{iyp} -ishchi o'rning bir yillik vaqt fondi, soat.

Ishchi o'rnini vaqt fondi ($\Phi_{yo'r}$) quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$\Phi_{yo'r} = D_{TY} * a * t, \text{ soat}$$

bu yerda: a - almashinish davomiyligi, soat; t-almashinishlar soni.

2.13-jadval. Ishlab chiqarish ishchlari sonini aniqlash

№	Mintaqa yoki ustaxona	Yillik ish xajmi, T_v , o-s	Nominal vaqt fondi, Φ_n , soat	Hisobiy texnologik ishchi soni, P_T	Q/qilingan ishchi soni, P_T	Shtatli vaqt fondi, Φ_{sh} soat	Q/qilingan shtatli ishchi soni, P_{sh}
1	2	3	4	5	6	7	8
I	Mintaqalar	(Postda bajariladigan ishlar)					
1.1	KXK	6664	2070	3,2	3	1840	4
1.2	1-TXK	1625	2070	0,8	2	1840	3
1.3	2-TXK	3149	2070	1,5		1840	
1.4	1D	488	2070	0,2		1840	
1.5	2-D	400	2070	0,1		1840	
1.6	JT	6539	2070	3,2	4	1840	4
	Jami:	18865			9		11
2	Ustaxonalar	(ustaxonada bajariladigan ishlar)					
2.1	Agregat	1948	2070	1	1	1840	3
2.2	Chilangan-mexanik	1028	2070	1	1	1840	1
2.3	Elektrotexnika	813	2070	0,4	1	1840	
2.4	Akkumliator	217	2070	0,1		1820	
2.5	Ta'minot tizimi	356	2070	0,1		1820	
2.6	Shina va vulkanizatsiya	495	2070	0,2		1820	1
2.7	Issiqlik ustaxonalari (payvandlash, tunukasozlik, temirchilik, misgarlik)	1679	2070	0,9	1	1820	
2.8	Qoplamachilik, taksometr	613	2070	0,2		1820	
	Jami	7149			4		4
3	Yordamchi ishlar						
3.1	Elektro mexanik	658	2070	0,33	1	1840	1
3.2	Quvur o'tkazish	579	2070	0,32		1840	
3.3	Qurilish tuzatish	421	2070	0,19		1840	
3.4	Xo'jalik ishlari	3946	2070	1,99	2	1840	2
	Jami:	5604			3		3
	Hammasi	31618			15		18

2.5. KX, TXK, JT va diagnostika mintaqalari uchun postlar va tizimlar sonini hisoblash.

Ishlab chiqarshi maydonining avtomobil egallagan qismi post deb ataladi. Postlar ishchi, yordamchi va «podpor» postlarga bo'linadi. Ishchi postlarda TXK, JT va diagnostika ishlarining texnologik jarayonining ayrim operatsiyalari yoki asosiy elementlari bajariladi, shuning uchun ishchi postlar kerakli jixozlar, moslama va asboblardan jixozlanadi. Yordamchi postlarda tayyorgarlik ishlari hamda ishchi postlarda bajarilib ulgurilmagan ishlar bajariladi.

Podpor postlarda TXK ishlarini oqim usulida tashkil qilinib, avtomobillarni isitish uchun, bajariladigan ish xajmini ishlash uchun va TXK da shamol xosil bo'lishini oldini olish uchun xizmat qiladi. TXK va JT ishlarini deyarli 60% xajmi postlarda bajariladi.

Shuning uchun loyihalash texnologiyasi jarayonida bu bosqich alohida ahamiyatga ega. Shunday qilib, postlar soni keyinchalik korxonaning xajmiy rejalashtirish yechimini tanlashda asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Postlar soni bajariladigan ishlarni mehnat xajmiga va dasturiga, TXK va JT tashkil etish usuliga, ishlab chiqarish mintaqalarini tarkibiga bog'liqdir.

2.5.1. Kundalik xizmat ko'rsatish (KX) mintaqasini postlar va tizimlar sonini hisoblash.

- KXK mintaqasini vazifasi va bajariladigan ishlar tavsifi.
- Dastlabki ma'lumotlar.

Mintaqaning ish tartibi				Hisoblangan mehnat xajmi	Kunlik dasturi	
D_{yi}	D_{ty}	a, s	m	$t_{kx}, o-s$	N_{kxk}	$T_{kxk}, o-s$
365	305	7	1	0,14	99	13,86

KXK ishlari o'z ichiga avtomobillarni tozalash, yuvish, artish (quritish) ishlarini qamrab oladi. KXK ishlari kunlik dasturiga va KX ning hisoblangan mehnat xajmiga ko'ra, maxsuslashtirilgan yoki oqim usulidagi postlarda bajarilishi mumkin.

Tozalash ishlarining kunlik mehnat sarfi:

$$T_{kxk}^T = T_{kxk} d_t = 13,86 * 0,30 = 4,16 \text{ o-c}$$

bu yerda: d_t -ni qiymati 3-ilovadan olinadi.

$d_t = (0,3...0,45)$ - tozalash ishlarini ulushi.

Avtomobillarni tozalash bilan band bo'ladigan kerakli ishchilar soni:

$$P_3 = \frac{T_{kxk}^T}{m * a} = 4,16 / 1 * 7 = 0,60 = 1 \text{ odam}$$

Tozalash postlariniig soni:

$$X_T = \frac{T_{kxk}^T \cdot \varphi}{a \cdot m \cdot k_{\phi} \cdot P_{ypm}} = 4,16 * 1,2 / 7 * 1 * 0,8 * 1 = 0,90 = 1 \text{ ta}$$

bu yerda: P_{ypm} -bitta tozalash postiga to'g'ri keluvchi o'rtacha ishchilar soni (1-2 odam);

K_{ϕ} -ishchi vaqtdan foydalanish koeffitsienti;

φ - avtomobillarni tozalash postiga kirish noteksligini hisobga oluvchi koeffitsient, $\varphi = 1,1...1,2$

Yuvish ishlarilarining kunlik mehnat sarfi:

$$T_{kxk}^{yu} = T_{kxk} d_{yu} = 14,16 * 0,55 = 7,8 \text{ o-s}$$

bu yerda: d_{yu} - yuvish ishlarining ulushi;

d_{yu} -ning qiymati yuvish ishlarini taqsimot jadvalidan olinadi.

Yuvish postlariniig soni:

$$X_{yyu} = \frac{T_{kxk}^{yu} \cdot \varphi}{a \cdot m \cdot k_{\phi} \cdot P_{ypm}} = 7,8 * 1,3 / 7 * 1 * 0,9 * 2 = 1 \text{ ta}$$

2.5.2 1-TXK mintaqasining postlar va tizimlar sonini hisoblash.

- 1-TXK mintaqasining vazifasi va bajariladigan ishlar tavsifi.
- Dastlabki ma'lumotlar.

2-TXK mintaqasining ish tartibi			Hisoblangan mehnat sig'imi	Ishlab chiqarish dasturi			Vaqt fondi
D_{ty}, kun	a, soat	m	$T_1, o-c$	N_{1k}	$T_{1y} o-c$	$T_{1y-D} o-c$	$\Phi_n \text{ soat}$
305	7	1	3,11	2	1847	1625	2070

1-TXK dagi diagnostikasiz kunlik ish xajmi:

$$T_{1k-d} = T_{y-d} / D_{ty} = 1847 / 305 = 6 \text{ o-s}$$

Bir almashinishdagi ishchilarni lozim bo'lgan soni:

$$P_3 = \frac{T_{1\kappa-D}}{a \cdot m} = 6/7 \cdot 1 = 0,9 = 1 \text{ odam}$$

Xizmat ko'rsatuvchi postlarning umumiy soni:

$$X_1 = \frac{T_{1\kappa-D}}{a \cdot m \cdot P_{ypm}} = 6/7 \cdot 1 \cdot 1 = 1 \text{ ta}$$

